



**ҒАРБ ВА ШАРҚЛИКЛАРНИНГ АТИРГУЛ БИЛАН БОҒЛИҚ МАГИК-  
МИФОЛОГИК ҚАРАШЛАРИ ВА АНЬАНАЛАРИ**

**Джалилова Зарнигор Баходировна**

*Бuxoro davlat universiteti*

*Инглиз тилишунослиги кафедраси ўқитувчиси*

[z.b.djalilova@buxdu.uz](mailto:z.b.djalilova@buxdu.uz)

**Annotasiya:** *Gullar malikasi atirgulning jahonda keng tarqalishi uning turli mamlakatlar madaniyatida tutgan ulkan o'rni bilan izohlanadi. Ushbu maqolada biz g'arb va sharq xalqlari orasida atirgul bilan bog'liq mifologik qarashlar, milliy urf-odat va an'analar haqida so'z yuritiladi.*

Insoniyat tarixida tabiat in'omlari orasida ayrim o'simliklar va gullar o'ziga xos ramziy va e'tiqodiy ahamiyat kasb etib kelgan. Ularning ichida "atirgul" o'zining nafisligi, go'zalligi va betakror ifori bilan, deyarli barcha xalqlarning madaniy xotirasida muqaddaslik timsoli sifatida o'rin egallaydi. Ushbu tadqiqotda turli xalqlarning mifologik qarashlari asosida atirgulga berilgan e'tiqodiy va estetik yondashuvlar, uni muqaddaslashtirish holatlari tahlil qilinadi. Bu esa bizga inson tafakkurining qadimiy ildizlari, madaniy qatlamlari va umuminsonga xos go'zallikka intilishlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Atirgulsiy whole body Lakshmi barcha sharq xalqlari tomonidan muqaddas sanalib, ulug'langan. Hususan, qadimgi Hindistonda atirgul shu qadar sharaflanganki, hatto o'sha paytdagi qonunga ko'ra shohga atirgul olib kelgan har bir kishi undan xohlagan narsasini so'rashi mumkin bo'lган. Podsholarning xonalari atirgullar bilan bezatilgan. O'lpon va soliqlarni to'lashda atirgullar oltin barobarida qabul qilingan. Brahmanlar ibodatxonalarini atirgullar bilan bezab, diniy marosimlar paytida xudolar haykali ustidan atirgullar sochilgan.

Hind puranalari, ya'ni afsonalariga ko'ra, ayollarning eng chiroylisi, Lakshmi atirgulning ochilayotgan g'unchasidan tug'ilgan. Ma'bud Vishnu o'z atirgul beshidida uxbab yotgan go'zal Lakshmini ko'rib, uni o'pich bilan uyg'otadi. Vishnu go'zallik ma'budasini bo'lган Lakshmini sevib qolib, uni xotinlikka oladi.

Fors afsonalarida aytishicha, bir kuni barcha gullar Allohga murajaat qilib, uyqusiragan lotus o'rniga o'zlarini uchun yangi hukmdor tayinlashni iltimos qilishibdi. Garchi lotus chiroyli bo'lsa-da, ko'pincha o'z vazifalarini unutib qo'yayotganini bildirishibdi. Alloh ularning iltimosiga binoan oq atirgulni tikan bilan himoyalagan holda gullarga hukmdor qilib yuboribdi. Gullar esa Alloh yaratgan va hukmdor sifatida yerga yuborilgan atirgulni qadrlay boshlabdilar. Gullarning yangi malikasini ko'rgan bulbul uning go'zalligiga lol qolib, zavq bilan unga yopishib olganda sayrayveribdi. Bulbul atirgulni shu qadar ehtiros bilan ko'kragiga bosgan ekanki, bu gulni himoyalovchi o'tkir tikanlar bulbulning yuragiga sanchilibdi va uning ko'ksidan qip-qizil qon otilib chiqib, atirgulning nozik barglariga





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



to‘kilibdi. Shundan qip-qizil atirgullar hamda oq bo‘lsa-da, tashqi barglari pushti rangli atirgullar ham paydo bo‘libdi. Shu kabi afsonalar asosida qadimdan hozirgacha fors shoirlari gulga oshiq bulbul va uning qonga to‘lgan yuragi xususida kuylashdan charchamay kelishmoqda.

Yunonlar atirgulni xudolarning insonlarga sovg‘asi deb hisoblashgan. Anakreonning so‘zlariga ko‘ra, atirgul sevgi xudosi Afroditaning dengizdan chiqayotganida tanasini qoplagan oppoq ko‘pikdan tug‘ilgan. Ushbu gulni ko‘rib sehrlangan boshqa xudolar unga nektar sepadilar, bu esa atirgulga ajoyib hid baxsh etadi.

Aytishicha, Afrodita to seviklisi Adonisning cho‘chqa qattiq yaralaganini bilmagunicha oppoq tusda bo‘lgan ekan. Buni eshitgan ma'buda sevgilisi yoniga, ya'ni u yaralanib yotgan joy – Piton bog‘iga shoshilibdi. Ammo kohinlar tomonidan oq atirgullar bilan bezatilgan ibodatxona maydoni va bog‘ini yugurgancha kesib o‘tarkan, u yerdagi oq atirgullarning tikonlari ma'budaning oyoqlarini yaralab, qonga belab yuboribdi. Ma'buda bularga e’tibor bermay, sevgilisi sari shoshibdi. Ma'budaning oyoqlaridan oq atirgullar ustiga tomgan ilohiy qon tomchilari ularni qizil tusga evriltiribdi.

Yunonlar orasida atirgullar ham to‘y, ham motam marosimlarida ishlatilgan. Masalan, kelinlar boshiga mirtl (doimo yashil ko‘rinishda turadigan pushti yoki oq kichik gulli daraxt turi) novdalari bilan bog‘lab yasalgan atirgulli gulchambar taqishgan. Kelin kirib keladigan xonodon atirgullar bilan bezatilgan. Kelin-kuyov yotog‘idagi karavot (divan) ustiga atirgul barglari sochilgan.

Shuningdek, yunonlar urushdan qaytib kelgan g‘olibning yo‘li va uning aravasiga atirgul gulbarglarini sochishgan.

Yunonlar marhumlarning jasadi va qabrularini ham atirgullarga yoki atirgul gulbarglariga burkashgan. Azador kishi motam belgisi sifatida boshi va ko‘kragiga atirgul shodasini taqqan. Bu bilan inson umri xuddi gullar kabi qisqaligiga ramziy ishora qilingan.

Diniy marosimlarda yunonlar xudo haykallarini atirgul gulchambarlari bilan bezashgan va poyiga ham shunday gulchambarlarni qo‘yishgan.

Atirgul kolonistlar tomonidan Rimga ham ko‘chirilgan va u yerda yanada yaxshi ildiz otgan. Xususan, birinchi respublika rimliklari uchun atirgul muqaddas hisoblangan. Agar Yunonistonda atirgul xudolar orasida sevgi va go‘zallik ramzi, odamlar orasida esa ko‘ngil ochish, sevgi izhor qilish, quvonch va chuqur qayg‘uni ifodalash uchun xizmat qilgan bo‘lsa, rimliklar orasida respublika davrida u qat‘iy axloqning ramzi hisoblangan va ulkan ishlar uchun mukofot sifatida taqdim qilingan.

Rimliklar orasida do‘stona ziyofatlar paytida o‘z bo‘yniga ilib olgan atirgul gulchambaridan gulbarg uzib olib, uni do‘stining sharobiga tashlash odati bor bo‘lgan. Bu bilan atirgul bargi solingen vinoni ichgan kishiga gulchambar egasi o‘z mehri balandligini ifoda etgan. Shu odad asosida bir kuni Misrning taniqli malikasi Kleopatra Mark Antonini saroyida qabul qilarkan, avvalo, ziyofat zalining polini atirgul barglari bilan qalin qatlamda bezashni buyuradi. Orada Kleopatra o‘z gulchambaridagi atirgullarga kuchli zahar ham septiradi. Uchrashuv chog‘ida Antoni Kleopatrani o‘z his-tuyg‘ularining samimiyligiga





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



ishontirish uchun, unga bo‘lgan muhabbatiga qasamyod etib, ayol boshidagi gulchambardan atirgul barglarini uzib oladi va sharob kosasiga sepadi. Biroq Antoni sharobni endi ichmoqchi bo‘lganida, Kleopatra uning qo‘lidan kosani tortib olib: “Mana, qara Antoni, mening sendan qutulishim qanchalik oson edi, qaniydi sensiz yashay olsam edi!” – deydi. Keyin o‘limga mahkum qilingan bir qulga bu kosani ichishni buyuradi.

Rimliklar uchun atirgul jasorat timsoli sifatida ham qaralgan. Shuning uchun Rim askarlari urushga ketayotib, dubulg‘alarini yechib, jasorat ko‘rsatish yo‘lida ilhomlanish uchun boshlariga bir muddat atirgulli gulchambar kiyganlar.

Rimda har yili marhumlar xotirasiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tantanalar “Rozaliya kunlari” (“Dies rosationis”) deb nomlangan. Bu kunlarda marhumlarning qabrlari, agar yoqilgan bo‘lsa, xoki yoki kuli saqlanadigan idishlar atirgul gulshodalari bilan tozalangan. Atirgullar diniy marosimlarda ham, kundalik hayotda ham ishlatilgan. Ulardan uy-joylarni va uy mehroblarini bezashda, tantanali marosimlarni tashkil qilishda keng foydalanilgan.

Rimda atirgulga nisbatan hashamat belgisi sifatida ham qaralgan. Masalan, prokonsul (qadimgi Rimdag'i davlat organi mansabi egasi) manman Verresni Rim atrofida faqat zambilda ko‘tarib yurishgan. Uning to‘saklari va yostiqlari yangi atirgul barglari bilan to‘ldirilgan. Prokonsulning o‘zi ham atirgul gulshodalariga o‘ralib yurgan.

Shuningdek, imperator Neron ham attirgulli hashamatlarga o‘ch bo‘lgan. U mashhur tantanalar zalining shift va devorlarini ataylab to‘rt faslni aks etuvchi tasvirlar bilan bezattirgan ekan. Bayram tantanalarini uyuştirgan paytida esa mehmonlarning ustiga milliardlab yangi atirgul barglarini do‘l va yomg‘ir kabi yog‘dirarkan.

Rimliklarning barcha bayram tantanalarida nafaqat har bir mehmon boshiga atirgul gulchambarini kiyib yurishi lozim bo‘lgan, balki shu yerda xizmat qilib yurganlar, barcha ovqatlaru sharoblar usti, ularning idishlari ham atirgul bilan bezatilgan. Atirgullar butun stolga, ba'zan hatto polga sochilgan. Atirguldan pudinglar, jele, pushti shakar va ko‘plab shirinliklar, har xil ichimliklar va taomlar tayyorlangan. Bu an’ana, xususan, Sharqda haligacha kuchli saqlanib qolgan.

Mehmonlarga taqdim etilgan gulchambarlar atirguldan to‘qilmagan, balki aylana simga o‘ralgan atirgul barglaridan yasalgan. Ba'zi patritsiylar qayiqlarda sayr qilish uchun borganlarida ham dengiz yuziga atirgul barglarni sepishni buyurganlar.

Vaqt o‘tishi bilan ajoyib go‘zallik va xushbo‘ylikka ega atirgul bilan bog‘liq hodisa va holatlar G‘arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

Bora-bora atirgulning yuqoridagi kabi ma'nolari yanada kengayib, u jannatning guli sifatida qarala boshlandi. Hatto uni muqaddas Bibi Maryam nomi bilan bog‘lashdi.

Nemis rassomlari Bokira Maryam va Bola Isoni uch tusdag'i atirgul gulchambari bilan o‘ralgan ko‘rinishda tasvirlashdi. Bunda oq atirgul quvonchni, qizili azobni, sarig‘i esa shon-shuhratni anglatadi.

Xullas, barcha xalqlarda atirgulga oshuftalik va e'tiqod qadimdan shakllangan bo‘lib, qator an'analarda hamon davom etib kelmokda. Atirgul bilan aloqador e'tiqodiy qarashlar





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tizimi shakllangan bo‘lib, ularning kelib chiqishi ibtidoiy insonlarning animistik va totemistik mifologik tasavvur-tushunchalariga borib taqaladi.

### Adabiyotlar

1. Золотницкий М.Ф. Роза в истории, мифах и легендах. Биология №6, 2001. URL: <https://bio.1sept.ru/article.php?ID=200100601>
2. Публий Овидий Назон. Метаморфозий. Пер. С.В.Шервинского. – М.: Издательство “Художественная литература”, 1983.
3. Ingram J.H., Flora Symbolica or the Languagae and Sentiment of Flowers. – L: Frederich Warne and Co, 1969. – 211 p.
4. Зарнигор, Д. Б. (2023). Выражение Модели" Эмоция–Растение" В Английской И Узбекской Поэзии. *Miasto Przyszłości*, 32, 147-150.
5. Djalilova, Z. B. (2021). PLANTS DESCRIBING HUMAN FEATURES IN M. DRAYTON'S POEMS.
6. Bakhodirovna, D. Z., & Firuzovna, N. L. (2025). ADVERTISEMENT DISCOURSE: THE INFLUENCE OF CULTURE ON DEPICTION OF SLOGANS. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 3(33), 291-295.